

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA O'RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI  
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI**

**«KELISHILDI»**

Respublika o'rtta tibbiyot va  
farmasevtika xodimlari  
malakasini oshirish va ularni  
ixtisoslashtirish markazi

muftichil xay'at raisi

M. Akimova

2025 y.



**«TASDIQLAYMAN»**

Respublika o'rtta tibbiyot va  
farmasevtika xodimlari malakasini  
oshirish va ularni ixtisoslashtirish  
markazi direktori

M. Xusnajanova

2025y.



**Bilimlar sohasi: Sog'liqni saqlash**

## **Anesteziistka**

(sikli bo'yicha ixtisoslashtirish guruhlari uchun)

**O'QUV DASTURI**

**(288-kredit )**

**Toshkent – 2025 yil**

**TUZUVChILAR:**

L.X.Musadjanova

Respublika o'рта tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi direktori,t.f.d. professor

U.A.Tursunbayeva

RO'TFXMO va IM o'qituvchisi

SH.M.Valiyev

TDTU Anesteziologiya va reanimatologiya kafedra assistenti

**TAQRIZChILAR:**

A.S.Yusupov

TDTU Bolalar xirurgiyasi, urologiyasi,aneteziologiya va reanimatologiya kafedrası professor t.f.d.

S.T.Gaziyev

TDTU 2-umumiy jonlantirish bo'limi mudiri t.f.n. dotsent

O'quv dasturi Respublika o'рта tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Pedagogik kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 9 » 12 2025.y.

bayonnoma № 6

Pedagogik kengash raisi



L.X.Musadjanova

O'quv dasturi direktorlar kengashida ko'rib chiqildi,muhokama qilindi,tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 12 » 12 2025.y.

bayonnoma № 5

## 1. Kirish

O'zbekiston Respublikasida o'rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, ixtisoslashtirish, tibbiyot muassasalarida hamshiralik ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan. Mazkur o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 4310-son va 2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19 may 2021 yildagi "O'zbekiston Respublikasida horijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari" PQ-5117 sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo'yicha me'yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risidagi" buyrug'i, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli "O'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo'yiladigan Davlat talablari" ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan. Dasturda o'quv fanining mazmuni, uni o'zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e'tiborga olingan. "Anesteziotika" o'quv dasturi yo'nalishining o'quv rejasi asosida tayyorlangan bo'lib, 3 yildan 7 yilgacha mehnat stajida uzilish bo'lgan hamshiralarni 288 kredit ixtisoslashtirish uchun mo'ljallangan. Dastur fanlar modullariga ajratilgan bo'lib: kasbiy rivojlanish modulida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2025 yil 15-avgustdagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xodimlarning bilim va ko'nikmalarini yanada oshirish haqida" 255-sonli buyrug'i ijrosini bajarish maqsadida "Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish" moduli kiritildi. Kasbiy rivojlanish moduli ma'naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm-fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to'g'risida ma'lumotlar kiritilib, tibbiy ta'limda uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo'limlarni ketma-ketligini ta'minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o'quv materiallarini qamrab olgan. Dasturda davolash profilaktika muassasalari anesteziologiya va reanimatsiya bo'limlarida faoliyat olib borishni rejalashtirayotgan o'rta tibbiyot xodimlari lozim bo'lgan yangi bilim va ko'nikmalarni (bilishi mumkin, bilishi lozim, bajara olishi kerak va qaysi amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishi lozim) yetarli darajada o'zlashtirishga qaratilgan materiallar taqdim etilgan.

### 1.1 Maqsad:

Anesteziologiya va reanimatologiya sohasida nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar va kasbiy kompetensiyalar bilan ta'minlash, operatsiya oldi, operatsiya vaqti va operatsiyadan keyingi davrda bemorlarga malakali tibbiy yordam ko'rsatishga tayyorlash. Davolash profilaktika muassasalarida anesteziologiya va reanimatsiya bo'limida faoliyat olib borishni rejalashtirayotgan anesteziotika hamshiralarni har tomonlama yetuk, yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga erishish, malakali tibbiy yordam ko'rsatish samaradorligini ko'tarish, yangi nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallashga qaratilgan.

### 1.2. Vazifalar:

- Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va me'yoriy hujjatlarni ish faoliyatida qo'llay olishga o'rgatish;
- zamonaviy klinik protokollar va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida ishlash ko'nikmalarini yangilash va mukammallashtirish;
- etika va deontologiyaning zamonaviy jihatlari bilan tanishtirish;
- anesteziologiya sohasidagi yangiliklar bilan tanishtirish;
- anesteziologiya va reanimatologiya asoslari bo'yicha nazariy bilimlarni shakllantirish
- turli xil anesteziya usullari va ularning qo'llanish xususiyatlarini o'rgatish
- operatsiya vaqtida bemorning hayotiy ko'rsatkichlarini nazorat qilishni o'rgatish
- reanimatsiya va shoshilinch holatlarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish
- aseptika va antiseptika qoidalariga qat'iy rioya qilishni o'rgatish
- zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar va anesteziologik apparatlar bilan ishlashni o'rgatish
- bemorlarni operatsiyaga tayyorlash va operatsiyadan keyingi parvarishni tashkil etish
- zamonaviy anesteziologiya usullari, zamonaviy og'riqsizlantirish turlari bilan tanishtirish;

- bemorlarni ogʻriqsizlantirishga tayyorlash va operatsiyadan soʻng bemorlarni kuzatuvga olish va yuzaga kelishi mumkin boʻlgan havf omillarini erta aniqlash mahoratini oshirish;
- anesteziist(ka) hamshirasining xuquqiy masʼuliyatlari, uning ish faoliyatidagi yangi koʻnikmalar, zamonaviy uslublar toʻgʻrisida maʼlumot berish;
- nazariy bilimlarini yangilash, chuqurlashtirish, olgan bilimlarni ish jarayonida takomillashtirish;
- favqulotda vaziyatlar, kechiktirib boʻlmaydigan holatlarini tahlil qila olish va kechiktirib boʻlmaydigan yordamni koʻrsatish qobiliyatini yangilash.

### **1.3. Taʼlim oluvchilar toifasi (kontingenti):**

Oʻquv dasturi boʻyicha davolash profilaktika muassasalarida anesteziologiya va reanimatsiya boʻlimida faoliyat olib borishni rejalashtirayotgan mehnat stajida 3 yildan 7 yilgacha uzilish boʻlgan oʻrta tibbiyot kollejini davolash, akusherlik, hamshiralik ishi yoʻnalishlari boʻyicha mutaxassisligini *tasdiqlovchi hujjati* boʻlgan oʻrta tibbiyot xodimlari uchun moʻljallangan.

### **1.4. Oʻquv dasturini oʻzlashtirish uchun zarur boʻlgan tinglovchi kompetensiyasi:**

- tibbiy etika va deontologiyani amalda qoʻllay oladigan, notiqlik sanʼatining asoslarini tushungan yetuk mutaxassis boʻlish;
- amaldagi meyoriy xujjatlar bilan ishlash, soxa boʻyicha zamonaviy yutuqlardan xabardor boʻlib, uni amalda qoʻllay olish qobiliyatiga ega boʻlishi;
- kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur boʻlgan bilim, koʻnikma va malakalarni egallash va ularni amalda qoʻllay olishi;
- hamshiraning huquqiy meyorlarini, bemor huquqlari, roziligi, rad etishi, bemorlarning yoshiga nisbatan hususiyatlarini bilishi;
- tibbiyot psixologiyasi va shaxslararo muloqot koʻnikmalarini amalga oshirish;
- bemorning asosiy hayotiy koʻrsatkichlarni oʻrganish va baholash;
- bemorga ogʻriqsizlantirishni tashkil etishdagi meʼyoriy hujjatlarni oʻrganish va yuritishni bilish;
- anesteziologiya usullari va bosqichlarini bilishi;
- bemorlarda ogʻriqsizlantirish usullarini toʻgʻri qoʻllash;
- bemor holatini baholash;
- tibbiyot psixologiyasi va shaxslararo muloqot koʻnikmalariga ega boʻlish;
- mutaxassisligi boʻyicha nazariy va amaliy bilimlarga ega boʻlgan holda, uzluksiz oʻz malakasini oshirishga tayyor boʻlish.

### **1.5. Dasturning dolzarbligi:**

Zamonaviy tibbiyotda jarrohlik amaliyotlari soni ortib bormoqda. Jarrohlik vaqtda bemor xavfsizligini taʼminlash, ogʻriqsizlantirish va hayotiy muhim funksiyalarni nazorat qilishda anesteziistka hamshiraning oʻrni juda muhim hisoblanadi. Anesteziologiya va reanimatologiya sohasida malakali oʻrta tibbiy xodimlarga boʻlgan ehtiyoj yuqori. Shu sababli anesteziistka hamshiralarni tayyorlash va ularning kasbiy bilim hamda amaliy koʻnikmalarini oshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

**1.6. Dastur hajmi:** 288 kredit (kuniga 6 kredit, haftada 36 kredit).

### **1.7. Oʻqish shakli:**

- kunduzgi - oʻqish ishdan ajralgan holda
  - on/offline, masofaviy/anʼanaviy oʻqish ishdan ajralgan/ajralmagan holda
- 1.8. Mashgʻulotlarni oʻtish tartibi:** Mashgʻulotlar “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish toʻgʻrisida”gi OʻzR SSV ning 2020 yil 15 iyundagi № 160-sonli buyrugʻi va markazning ichki tartib-qoidalari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Mashgʻulotlar 9<sup>00</sup> da boshlanib, 13<sup>40</sup> da tamom boʻladi. Tushlik-30 daqiqa.

**1.9. Oʻqish tugagandan soʻng beriladigan xujjat:** oʻquv kursni toʻliq oʻzlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga “Anesteziistka” yoʻnalishi boʻyicha 288 kredit ixtisoslashtirishdan oʻtganligi haqida davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

## **2.REJALASHTIRILAYOTGAN TAʼLIM NATIJALARI 2.1.Rejalashtirilayotgan taʼlim natijalaridan soʻng takomillashtirilishi (yangilanishi) lozim boʻlgan kasbiy kompetensiyalar:**

- tinglovchini fikrlash, tahlil va sintez qilish, jamoa bilan ishlash va uni boshqarish, intizomlilik, boshlagan ishini mantiqiy yakuniga yetkazishga tayyorligini rivojlantiradi;
- konfidensial maʼlumotlar bilan ishlashda tibbiyot xodimi etikasi, kasbiy sir nuqtai nazaridan kelib chiqib bemorlarni irqi, dini, millati va moddiy taʼminot darajasidan qatʼiy nazar ularga hurmat va eʼtibor koʻrsatish;

- tibbiy etika va deontologiya qoidalariga rioya qilish;
- bemorlar bilan to‘g‘ri muloqot o‘rnatish;
- sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilish;
- aseptika va antiseptika qoidalarini bilish va amalda qo‘llash;
- tibbiy hujjatlarni to‘g‘ri yuritish;
- bemorni operatsiyaga tayyorlash;
- anesteziya turlari va ularning qo‘llanilishini bilish;
- operatsiya vaqtida bemorning hayotiy ko‘rsatkichlarini nazorat qilish;
- shifokor-anesteziologga anesteziya jarayonida yordam berish;
- operatsiyadan keyingi davrda bemor holatini kuzatish;
- anesteziologik apparat va tibbiy uskunalar bilan ishlash;
- infuzion terapiyani tayyorlash va nazorat qilish;
- kislorod terapiyasini o‘tkazish;
- kateterizatsiya, venoz kirishni ta‘minlashda ishtirok etish;
- dori vositalarini tayyorlash va qo‘llash;
- reanimatsiya chora-tadbirlarini bajarish;
- yurak-o‘pka reanimatsiyasida ishtirok etish;
- anafilaktik shok, kollaps va boshqa shoshilinch holatlarda tezkor yordam ko‘rsatish;
- bemor hayoti uchun xavfli holatlarni o‘z vaqtida aniqlash;
- operatsion xonada ish jarayonini tashkil etish;
- tibbiy asbob-uskunalarini tayyorlash;
- dori vositalarini hisobga olish va saqlash;
- tibbiy xavfsizlik qoidalariga rioya qilish;
- shaxsiy kompyuter texnologiyalari, turli manbalardan ma‘lumot olish, global kompyuter tarmoqlarida ma‘lumotlar bilan ishlash imkoniyati va istagi kengayadi;
- anesteziya o‘tkazish uchun zarur bo‘ladigan zamonaviy apparatlarni, kerakli jihozlarni ishga yaroqlilik sifatini tekshirish va ularni ishga tayyorlash ko‘nikmalariga ega bo‘ladi;
- bemorlarda og‘riqsizlantirish vaqtida qo‘llaniladigan asbob-anjomlarni ishlash prinsiplari va texnika havfsizlik qoidalariga amal qilish ko‘nikmalari yangilanadi;
- bemor ehtiyojlarini baholash, kuzatuvga olish va hayotiy muhim ko‘rsatkichlarni monitoring qilish qobiliyati mukammallashadi;
- bemorni og‘riqsizlantirishga tayyorlash, nazorat qilish, shifokor ko‘rsatmalarini o‘z vaqtida bajarish ko‘nikmalari shakllanadi va yangilanadi;
- dorilar ta‘sirini nazorat qilish;
- bemorlarda anesteziya vaqtida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan qo‘rquv va xavotir hissini kamaytirish va asoratlarni oldini olish;
- bemorni narkozga o‘z vaqtida yetkazish va operatsiya stoliga yotqizishni nazorat qilish, narkoz davrida narkoz kartasini to‘g‘ri, aniq yuritish qobiliyati shakllanadi va mukammallashadi;
- premedikatsiya uchun qo‘llaniladigan preparatlarni, narkoz jarayonida ishlatiladigan preparatlarni tayyorlash ko‘nikmalari shakllanadi va mukammallashadi;
- bemor ehtiyojlarini baholash, kuzatuvga olish va hayotiy muhim ko‘rsatkichlarni monitoringini olib borish ko‘nikmalari mukammallashadi;
- yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan asoratlarni (yurak, nafas to‘xtashi, shok, kollaps va b.) erta aniqlash va vrachgacha shoshilinch yordam ko‘rsatish ko‘nikmalari yangilanadi;
- narkozdan keyin asboblari va apparatlarni tozalash hamda narkoz apparati qismlarini zararsizlantirishni zamonaviy usullaridan foydalanish ko‘nikmalari shakllanadi;
- favqulotda vaziyatlar, kechiktirib bo‘lmaydigan holatlarini tahlil qila olish va kechiktirib bo‘lmaydigan yordamni ko‘rsatish qobiliyati yangilanadi.

### 3. DASTUR MAZMUNI

#### 3.1. “Anestezistka” 288 kredit ixtisoslashtirish kursi dasturi o‘quv rejasi.

№	Modul va mavzular nomi	Kredit	Auditoriya mashg‘ulotlari			Attestatsiya
			Nazariy mashg‘ulot	Amaliy mashg‘ulot	Seminar	
1.0	<b>Kasbiy rivojlantirish moduli</b>	<b>60</b>	<b>34</b>	<b>26</b>		
1.1	Modul: O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati. Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish.	6	6			
1.2	Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar	6	2	4		
1.3	Modul: Xorijiy til.	6	2	4		
1.4	Modul: Sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar va amaldagi me‘yoriy hujjatlar.	6	6			
1.5	Modul: Infekcion nazorat	12	8	4		
1.6	Modul: Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi.	6	2	4		
1.7	Modul: Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik	6	2	4		
1.8	Modul: Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko‘rsatish.	12	6	6		
<b>2.0</b>	<b>Mutaxassislik fani modullari</b>	<b>222</b>	<b>76</b>	<b>146</b>		
2.1	Modul: Anesteziologiya fanining maqsad va vazifalari. Anesteziologiya va reanimatologiya asoslari. Anestezistkaning funksional vazifalari.	12	4	8		
2.2	Modul: Anesteziya turlari. Anesteziologiyada ishlatiladigan zamonaviy narkoz va monitoring apparatlari. Texnika havfsizlik qoidalari.	24	8	16		
2.3	Modul: Anesteziologiyada ishlatiladigan dori vositalari va ularni qo‘llashda anestezist(ka)ning roli. Infuzion terapiya	36	12	24		
2.4	Modul: Zamonaviy narkoz tasnifi. Narkoz turlari va bosqichlari. Anesteziya vaqtida kuzatiladigan asoratlar.	42	14	28		
2.5	Modul: Og‘riq sindromi klassifikatsiyasi. Anestezist(ka)ning narkoz jarayonida va operatsiyadan keyingi og‘riqsizlantirishdagi roli. Anesteziyadan keyingi kuzatiladigan asoratlar.	48	16	32		
2.6	Modul: Shoshilinch anesteziya haqida tushuncha. Shoshilinch anesteziya komponentlari.	30	12	18		
2.7	Modul: Bolalar anesteziyasining o‘ziga xos xususiyatlari. Bolalarda qo‘llaniladigan anesteziya turlari.	30	10	20		
3.0	<b>Attestatsiya</b>	<b>6</b>				<b>6</b>
	<b>Jami:</b>	<b>288</b>	<b>110</b>	<b>172</b>		<b>6</b>

#### “Anestezist(ka) hamshirasi” ixtisoslashtirish o‘quv modullarining mazmuni

**1.1. Modul. O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati. Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko‘rib chiqish va Vazirlar Mahkamasining

yaqin va istiqbolga mo'ljallangan Harakatlar dasturi muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishidagi nutqida belgilab berilgan. Sog'liqni saqlash tizimidagi dasturlarni samarali va to'liq amalga oshirishdagi asosiy vazifalar. O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari. Yangi O'zbekiston tibbiyoti-yangicha yondashuvlar asosida transformatsiya qilinayotgan tizim. Islohotlar markazida "Inson qadri uchun" degan ezgu tamoyil ustuvor. Yurtimizda aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini jahon standartlari darajasiga olib chiqish maqsadida halqaro tajribani chuqur o'rganish va amaliyotga samarali tatbiq etish borasida olib borilayotgan ishlar. Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida tibbiyotga doir ustuvor yo'nalishlarning mazmun-mohiyati. "Aholi salomatligi-2030" milliy strategiyasining ustuvor yo'nalishlari, vazifalari va asosiy indikatorlari. O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida shakllangan milliy qonunchilik tizimi, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari hamda sog'liqni saqlash tizimida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar. Davlat siyosatining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi asosiy yo'nalishlari. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatchilarining mas'uliyatini oshirish, raqamlashtirish orqali inson omilini kamaytirish, ochiq ma'lumotlar tizimini rivojlantirish va fuqarolik jamiyati institutlarining rolini kuchaytirish.

**1.2. Modul Tibbiyotda raqamli texnologiyalar.** Tibbiyot sohasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishdagi nazariy va amaliy bilimlarni egallash, tibbiy statistik ma'lumotlarni to'g'ri tahlil qilish, tahlil qilingan natijalardan kelib chiqqan holda kasallikning oldini olish yoki davolash yo'llarini aniqlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida asosiy amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish. Internet tarmog'ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma'lumotlar bazasini tashkil etish, ekspert tizimlari va axborot xavfsizligi asoslarini bilishi kerak. "Tibbiyot informatikasi asoslari" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

- tibbiyot informatikasi asoslari, tushunchalari va tasavvurlarining umumiyligi;
- axborot tushunchalari va turlari. Tibbiyot masalarini yechishda informatikaning o'rni;

hozirgi zamonda informatikaning o'rni va roli, ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish

**1.3. Modul. Xorijiy til.** Ingliz tilini o'qitishning maqsadi va vazifalari Tibbiyot xamshiralari ingliz tilini tanishtirish va tibbiyot soxasiga aloqadorligini tushuntirish xamda shu soxaga oid terminlarni o'rganish. Ingliz tili alifbosidagi xarflar va asosiy qo'llaniladigan terminlar. The verb "to be", "to have" Introducing yourself. Tana a'zolarining nomlanishi. Tibbiyotda ko'p uchraydigan kassaliklar, kasallik belgilari xamda tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o'rgatish. Tana a'zolarining nomlanishi. Tibbiyotda ko'p uchraydigan kassaliklar, kasallik belgilari xamda tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o'rgatish. Ularni og'zaki nutqda ishlatilishini amaliy mashqlar yordamida o'rgatish va qo'llash. Tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o'rgatish. Ularni og'zaki nutqda ishlatilishini amaliy mashqlar yordamida o'rgatish va qo'llash. Berilgan qo'llanmalardan foydalangan xolda (At the doctor) mavzularida tinglovchilarni og'zaki nutqini rivojlantirish

**1.4. Modul. Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va amaldagi me'yoriy hujjatlar.** Sog'liqni saqlash tizimini Davlat dasturlari, sog'liqni saqlash tizimi islohotlariga oid Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni asosiy yo'nalishlari. Birlamchi tibbiy sanitariya yordamini isloh qilish. Onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini milliy modulini yaratish. Shoshilinch tibbiy yordamni samarali va to'liq tizimini yaratish. Aholiga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni rivojlantirish. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kasalliklarga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish. Sog'liqni saqlash tizimida yangi davr. Tibbiyot kadrlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish. Respublikada epidemiologik barqarorlikka erishish va uni ushlab turish. Davlat xususiy - sheriklik va tibbiyot turizmini rivojlantirish borasida islohotlarning mazmun mohiyati. Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi prezidentining qarori. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrdagi "Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlari. Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi moduli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmining huquqiy asoslari. Sog'liqni saqlash tizimidagi me'yoriy hujjatlar.

**1.5. Modul. Infeksiyon nazorat.** Infeksiya haqida tushuncha. Epidemiologiya asoslari. Infeksiyon nazorat, maqsad va vazifalari. Shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi. SanQvaM -0342-17, SanQvaM- 0317-15. Sanitariya epidemilogiya sohasida qo'llaniladigan me'yoriy hujjatlar. Ularning maqsadi, aholi salomatligini saqlash, kasallanishlarning oldini olish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi

sohasidagi munosabatlarni tartibga solish. Sanitariya qoida va me'yorlari bo'yicha ish olib borish. Tibbiy chiqindilarni yig'ish, saqlash va yo'q qilish.

Karantin va o'ta havfli yuqumli kasalliklar haqida umumiy ma'lumotlar. Karantin va o'ta havfli yuqumli kasalliklar guruhiga kiruvchi kasalliklar, ularning profilaktikasi. O'ta havfli yuqumli kasalliklar aniqlanganda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar rejasi. OIV va OITS haqida tushuncha. Avariya holatlar haqida ma'lumot.

Davolash profilaktika muassasalarida yuqumli kasalliklarning oldini olish va kamaytirishga qaratilgan profilaktika hamda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar o'tkazish. SanQvaM bo'yicha joriy va mukammal tozalash o'tkazish. Qo'llarga gigienik ishlov berish usullari, texnikasi va qo'llarni yuvish tartibi.

**1.6. Modul. Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi.** Sterilizatsiyani olib borish xonalaridagi aseptika va antiseptika tadbirlari, ularning talab darajasida bajarilish tartib va qoidalari. Markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan sterilizatsiya bo'limlari turlari. Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari va texnika xavfsizligi masalalari. Sterilizatsiyaning sifatini ta'minlovchi tadbirlar, uni tekshirish uchun zarur indikatorlar.

**1.7. Modul. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik.** Sog'lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'siri, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to'g'ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta'siri, tibbiy ko'riklarni tashkil etish va aholini jalb etish.

**1.8. Modul. Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko'rsatish.** Favqulodda vaziyatlar haqida tushuncha. Favqulodda vaziyatlar tasnifi, uning turlari, kelib chiqish sabablari, manbalari. Jabrlanuvchilarni saralash tartibi. Tibbiy saralash (traj usuli) va evakuatsiya qilish. Jabrlanuvchini ahvolini baholash, asosiy hayotiy ko'rsatkichlarni (nafas, puls, ong, AD) aniqlash. Birlamchi tekshiruv (ABC algoritmi). Bemor uchun zarur vaziyatni yaratish. Terminal holat. Terminal holat bosqichlari. Klinik va biologik o'lim belgilari. CPR – yurak-o'pka reanimatsiyasining nazariy asoslari. Kattalar va bolalarda yurak massaji va sun'iy nafas berishni o'tkazish algoritmi. Tez tibbiy yordam chaqirish tartibi. Travmalar va o'tkir holatlarda birinchi yordam ko'rsatish tamoillari. Qon ketish turlari va jgut qo'yish. Sinish, chiqish, immobilizatsiya. Shok holati. Kuyish, cho'kish sovuq va issiqlik urishi. Transportirovka qoidalari.

**2.1. Modul: Modul: Anesteziologiya fanining maqsad va vazifalari. Anesteziologiya va reanimatologiya asoslari. Anestezistkaning funksional vazifalari.**

Anesteziologiya va reanimatologiya fanining rivojlanish tarixi, vazifalari va tibbiyotdagi ahamiyati. Og'riqsizlantirish tushunchasi, anesteziya turlari, reanimatsiya va intensiv terapiya tushunchalari. Anesteziologik xizmatni tashkil etish. Sog'liqni saqlash vazirligining anesteziologiya sohasiga oid buyruqlari va me'yoriy hujjatlari. Anestezistka hamshiralarning funksional vazifalari, o'z vakolatlari doirasida tibbiy muolajalarni bajarishi. Tibbiy etika va deontologiya qoidalari rioya qilish. Anesteziologiya sohasida ishlatiladigan amaldagi asosiy buyruq va tartiblar. Me'yoriy hujjatlar (reanimatsion karta, intensiv terapiya kartasi, narkoz kartasi) bilan ishlash. Narkoz uchun zarur bo'lgan barcha jihozlar, anjomlar, dori-darmonlar va ularning hisoboti. Bemorlarni turli tekshiruvlarga tayyorlash. Hamshiralik parvarishini amalga oshirish.

**2.2. Modul: Anesteziya turlari. Anesteziologiyada ishlatiladigan zamonaviy narkoz va monitoring apparatlari. Texnika xavfsizlik qoidalari.**

Umumiy va mahalliy anesteziya tushunchasi. Anesteziya usullari, qo'llash ko'rsatmalari va qarshi ko'rsatmalari. Anesteziologik apparatlar va jihozlar

Anesteziya apparatining tuzilishi va ishlash prinsipi. Ventilyatsiya apparatlari. Monitoring apparatlari va ulardan foydalanish qoidalari. Anesteziologiya va reanimatsiyada ishlatiladigan zamonaviy apparaturalar, ularning ishlash texnikasi. Texnika xavfsizlik qoidalari amal qilish ko'nikmalari. Anesteziologiyada ishlatiladigan apparatlar va monitoring apparatlari haqida tushuncha. Narkoz-nafas apparatlari va moslamalar operatsiyadan oldin ishga tayyorlanishi. Nosozliklarni bartaraf qilishning ahamiyati. Reanimatsiya va intensiv davolash palatalarning jihozlanish meyorlari. Ularni ishlash prinsipi, sozlash, ishlatish, zararsizlantirish usullari. Qo'l bilan o'pkani sun'iy ventilyatsiya qilish moslamalari (RPA-1, RDA-1, RDA-2) Narkoz apparatlari. Laringoskoplar va intubatsion naychalar. Uzoq muddat avtomatik ravishda o'pkani sun'iy ventilyatsiya qiluvchi asboblari. EKG, elektrokardiostimulyator, infuzomat apparatlari bilan ishlash ko'nikmalari. Elektrovakuumli so'rg'ichlar va ularning ishlash texnikasi. Zamonaviy narkoz apparatlari va ularning ishlash prinsipi. Anestezistka ish stolini tayyorlash. Aseptika

va antiseptika.. Tibbiy asboblari va materiallarni sterilizatsiya qilish. Operatsion blokda sanitar-gigiyenik talablar.

**2.3.Modul: Anesteziologiyada ishlatiladigan dori vositalari va ularni qo'llashda anesteziistka hamshiraning roli.** Bemorning hayotiy ko'rsatkichlari nazorati haqida tushuncha. Bemorlarni narkozdan oldin medikamentoz tayyorlash. Premedikatsiya. Premedikatsiyaning maqsadlari, o'tkazish tartibi va unda qo'llaniladigan dori vositalari. Dozani hisoblash, bemorlarni medikamentoz tayyorlash, tromboembolik asoratlar profilaktikasi. Intensiv terapiyada qo'llaniladigan preparatlar. Infuzion preparatlar, qo'llash tartibi, ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar. Infuzion preparatlarni yuborish. Suv almashinuvi buzilishi klinik belgilarini baxolash. Ingalyatsion anesteziyada qo'llaniladigan preparatlar, ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar. Ingalyatsion anestetiklarni narkoz apparatiga quyish, saqlash, sarfini hisoblashni bilish. Noingalyatsion preparatlari va mushak relaksantlarini qo'llash, ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalar, antidotlar. Dori vositalarni yuborish ketma – ketligi, nojo'ya ta'sirlari. Anesteziist(ka)ning dori vositalarini ishlatilishini nazorat qilishi. Hisob-kitob hujjatlari.

**2.4. Modul: Zamonaviy narkoz tasnifi. Narkoz turlari va bosqichlari. Anesteziya vaqtida kuzatiladigan asoratlar.** Zamonaviy narkoz tasnifi. Narkoz turlari va bosqichlari. Narkotik moddalarni odam organizmiga yuborish yo'llari. Narkoz turlari va bosqichlari haqida tushuncha. Operatsiya paytida bemor holatining o'tkaziladigan anesteziyaga ta'sirini bilish. Ingalatsion anesteziya haqida tushuncha. Abdominal, torakal, LOR, yuz-jag' xirurgik amaliyotlarida anesteziyani o'ziga xos xususiyatlarini bilish. Noingalatsion anesteziya xaqida tushuncha. Oftalmologik va kichik jarrohlik amaliyotlarida anesteziyaning o'ziga xos xususiyatlarini bilish. Mahalliy anesteziya. O'tkazuvchi anesteziya haqida tushuncha. Ortopedik va travmatologik jarrohlik amaliyotlarida anesteziyaning o'ziga xos xususiyatlari. Regionar anesteziya haqida tushuncha. Akusherlik–ginekologik, urologik, yiringli jarrohlik amaliyotlarida anesteziyaning o'ziga xos xususiyatlari.

**2.5.Modul: Og'riq sindromi klassifikatsiyasi. Anesteziistkaning narkoz jarayonida va operatsiyadan keyingi og'riqsizlantirishdagi roli. Anesteziyadan keyingi kuzatiladigan asoratlar.** Anesteziistka hamshirasini operatsiya va narkozga tayyorgarligi. Narkoz jarayonida ishlatiladigan dori-darmonlarni, narkoz uchun apparatlarni, shuningdek, kerakli asboblari, narkotik vositalari, kislorod, laringoskop, intubatsiyaga kerakli jihozlarni tayyorlash. Apparatlarni ishga tayyorlash, anesteziistka hamshira so'rg'ichlari, defibrilyator, elektrokardioskopi ishga yaroqligini tekshirib ko'rishi, anesteziistka ish stolini jihozlash, kerakli dori vositalarni tayyorlash. Narkozni o'tkazish uchun jihozlarni yaroqligini tekshirish va tozalashga qo'yilgan talablar. Nafas marakazi va o'tkazuvchi yo'llarining buzilishi natijasida kuzatiladigan asoratlar. Yurak–qon tomir tizimini buzilishi natijasida kuzatiladigan asoratlar. Operatsiya uchun ish stolini jihozlash, kerakli dori vositalarni tayyorlash. Shoshilinch yordam talab etuvchi holatlarda anesteziist(ka)ning taktikasi. Narkoz bosqichlari va davrlarida bemorda yurak, nafas faoliyati monitoringini olib borish. Operatsiyadan keyingi davrda anesteziist(ka)ning nazorati. Bemorda asoratlar aniqlanganda shifokorgacha intensiv kuzatuv va yordam ko'rsatish. Tromboembolik asoratlar, sabablari va klinikasi. Nazotraxeal intubatsiyaning o'ziga xos xususiyati. Kichik jarrohlik amaliyotida og'riqsizlantirish o'tkazishda anesteziistka hamshirasining vazifalari.

**2.6.Modul: Shoshilinch anesteziya haqida tushuncha. Shoshilinch anesteziya komponentlari.** Shoshilinch anesteziya haqida tushuncha. Shoshilinch anesteziya o'tkazishda anesteziistka vazifalari. Bemorni shoshilinch tekshirish va umumiy ahvolini baholash. Torako–abdominal jarohatlarda shoshilinch anesteziyaning o'ziga xos xususiyatlari. Bir tomonlama o'pka intubatsiyasini o'tkazishda anesteziistka taktikasi. Yuz– jag', LOR va neyroxirurgik jarohatlarda shoshilinch anesteziyaning o'ziga xos xususiyatlari. Bronxoskopik intubatsiya va traxeostomiya orqali shoshilinch anesteziya o'tkazish. Akusherlik anesteziyasining o'ziga xos xususiyati va tamoyillari. Akusherlik amaliyotida shoshilinch anesteziya o'tkazish. Oyoq va qo'llar jarohatida shoshilinch anesteziya. Shoshilinch anesteziya asoratlari.

**2.7. Modul: Bolalar anesteziyasining o'ziga xos xususiyatlari. Bolalarda qo'llaniladigan anesteziya turlari.** Bolalar anesteziyasining asosiy xususiyatlari Bolalarni operatsiyaga tayyorlash. Bolaning umumiy holatini baholash, laborator tekshiruvlar, allergik holatlarni aniqlash, ovqat qabul qilishni cheklash, psixologik tayyorgarlik. Bolalarda kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda anesteziistka hamshiraning o'rnini. Bolalarda og'riqsizlantirish usullarini qo'llash. Bolalarni og'riqsizlantirishga tayyorlash va uni o'tkazish. Og'riqsizlantirish asoratlarida shoshilinch yordam ko'rsatish. Bolaning hayotiy ko'rsatkichlarini nazorat qilish, anesteziolog shifokorga yordam berish, operatsiyadan keyin bolani kuzatish. Operatsiyadan keyingi parvarish, nafas yo'llarini nazorat qilish kislorod terapiyasi, og'riqni kamaytirish.

0 yoshdan 2 oylikkacha chaqaloqlarda uchraydigan xavfli holatlar. Talvasa sindromi va unda shoshilinch yordam ko'rsatish. Gipertermiya va gipotermiya sindromlari, klassifikatsiyasi va ularda shoshilinch yordam ko'rsatish. Bolalarda o'tkir qon-tomir yetishmovchiliklarida shoshilinch yordam ko'rsatish. Bolalarda anafilaktik shok, sabablari, klinikasi va ularda yordam ko'rsatish. O'tkir nafas yetishmovchilik sindromi. O'pka shishi. Bolalarda nafas yo'llariga yot jism tiqilganda, laringospazmda yordam ko'rsatish. Bir yoshgacha bo'lgan bolalarda "og'izdan-og'izga" usulida sun'iy nafas berish texnikasi. Terminal holatlar, yurak-o'pka reanimatsiyasi.

#### **4. DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILY-PEDAGOGIK TA'MINOTI**

**4.1. O'quv bazalari:** Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi, Shifokorlar ko'chasi-2, 14-uy. Davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

**Amaliyot bazasi:** davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

#### **4.2. Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar ro'yxati:**

Modul bo'yicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o'tiladigan o'quv auditoriyalari.

Multimediali jamlanma: slaydlar to'plami bo'lgan rrt ko'rinishli ma'ruzalar, SD diskda ko'rgazma materiallar, ekran videofilmlar.

Klinik amaliy ko'nikmalarni mustaxkamlash trening o'kuv xonasi mulyaj, fantom v.b jihozlar.

Mavzular bo'yicha turli jadvallar, tasviriy ko'rgazma va qo'llanmalar,

#### **4.3. Tavsiya etiladigan adabiyotlar.**

##### **4.3.1. Qonunchilik va meyoriy-huquqiy hujjatlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari.
2. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining buyruq va meyoriy hujjatlari.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 6.05.2019 yildagi № 4310-sonli "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori;
6. № 377.13.07.2017y. "O'zbekiston Respublikasi aholisiga ko'rsatiladigan ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida".
7. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2013 yildagi № 225-sonli buyrug'i "Bolalarga stasionar yordam ko'rsatish".
8. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi qonuni".
9. Sog'liqni saqlash xodimlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimi faoliyatini tashkil etish va boshqarishga qo'yiladigan davlat talablari.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5.05.2017 yildagi "O'zbekiston Respublikasida tibbiy ta'lim tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2956-son qarori.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 7.12.2018 yildagi № 5590-sonli "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.

##### **4.3.2 Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. –T.:O'zbekiston, 2016.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning 2016 yil 31 oktabrdagi "Aholini dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta'minlashni yanada yaxshilashga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning 2017 yil 5 maydagi O'zbekiston Respublikasida tibbiy ta'lim tizimini yanada isloh qilish chor tadbirlari to'g'risidagi qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2018 yil 7-dekabrda 2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasining Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risidagi farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyovning 2020-yil 12-noyabrda birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmoni.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2020-yil 12-noyabrda Tibbiy profilaktika ishlari samaradorligini yanada oshirish orqali jamoat salomatligini ta‘minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar tug‘risidagi qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2020-yil 12-noyabrda Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2017 yil 28 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida O‘zbekistonning eng yangi tarixi bo‘yicha jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarori.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi Qarori.
11. SH.Mirziyoyev: “Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” risolasi. – T.: O‘zbekiston, 2016.
12. SH.Mirziyoyev: “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” asari – T.: O‘zbekiston, 2017.
13. SH.Mirziyoyev: “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz” kitobi.– T.: O‘zbekiston, 2017.
14. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni. 2017 yil 3-yanvar.
15. A.A.Abduqodirov, A.G.Xayitov: «Axborot texnologiyalari», Toshkent “O‘qituvchi ta‘minoti”, Toshkent. Mehnat -2000 yil.
16. A.Axmedov, N.Taylaqov: “Informatika”, Toshkent, O‘zbekiston -2002y.
17. T.Xolmatov, N. Taylaqov: “Amaliy matematika, dasturlash.
18. Abduraximova S.A.: InglizTili ( Tibbiyoto‘quvchilariuchun).
19. Gaffarov A.A.: Ingliz tili grammatikasi.
20. 2011-2018 yillarga rejalashtirilgan «Salomatlik-3» Loyixasi.
21. O‘zbekiston Respublikasida tuberkulyoz kasalligini kamaytirish bo‘yicha qo‘shimcha 2011-2015 yillarga rejalashtirilgan chora-tadbirlar.
22. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 2010 yil 7 iyun “Aholi orasida Mikronutriyentlar yetishmovchiligi to‘g‘risida”.
23. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni «Bola huquqlari kafolati to‘g‘risida».
24. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 2011 yil 5 oktabr “Alkogol va tamaki mahsulotlarini tarqalishi va iste‘molini chegaralash to‘g‘risida”.
25. 2011-2018 yillarga rejalashtirilgan «Salomatlik-3» Loyixasi.
26. Avtoklavlash va sterilizatsiyalashda texnika xavfsizligi bo‘yicha o‘rta tibbiyot xodimlari uchun o‘quv-dastur qo‘llanma. 2014y
27. Avtoklavlash va sterilizatsiyalashda texnika xavfsizligi bo‘yicha o‘rta tibbiyot xodimlari uchun o‘quv uslubiy qo‘llanma. Tashkent.2009.y
28. O‘zbekiston Respublikasi sanitariya qoidalari, meyorlari va gigiyenik normativlari. O‘zR SanQvaM № 0365 -19.
29. Tibbiy anjom-asboblar va buyumlarni sterilizatsiya qilish markazlarini loyihalashtirish, qurish va ekspluatatsiya qilish sanitariya qoidalari va meyorlari.
30. T.Y. Umarova va boshq.:” Xamshiralik ishi” Toshkent-2005.
31. V.YE.Avakov, O.V.Churilova, A.M.Sharipov: “Rukovodstvo po okazaniyu pervoy neotlojnoj dovrachebnoy pomoshi.” 2010g.
32. Y.Allayorov, Y.Tojiboyev: “Favkulodda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari”.
33. G.G.Jdanov. A.P.Zilber: ”Reanimatsiya i intensivnaya terapiya”.
34. B.N.Jukov, P.N.Mishensev: “Reanimatologiya ”.
35. A.Z.Manevich, A.D.Ploxoy: Intesivnaya terapiya, reanimatologiya, anesteziologiya”.
36. V.N.Turakulov, F.A.Qurbonov: ”Anesteziologiya va reanimatsiyada hamshiralik parvarishi” o‘quv qo‘llanma 2019y.
37. U.G‘.Shomirzayeva, Q.B.Boltayev: “Umumiy anesteziologiya va reanimatologiyadan qo‘llanma”.
38. B.N.Jukov: “Reanimatologiya” Moskva Izdatelskiy sentr “Akademiya” 2007y.
39. Intensiv terapiya. Agzamxodjayev T.S., Yusupov A.S, o‘quv qo‘llanma, Toshkent, 2014.
40. Kombinirlangan multimodal anesteziyani abdominal kasallarda qo‘llash usuli. Agzamxodjayev T.S., Fayziyev O.Y., Yusupov A.S.: Uslubiy qo‘llanma Toshkent, 2019.

41.«Klinicheskaya anesteziya» Perevod s angliyskogo A.YE.Lyubovoy i prof. S.V.Sviridova 2014 yil.

**Qo‘shimcha adabiyotlar:**

1.Intensiv terapiya asoslari. Agzamxodjayev T.S., Yusupov A.S.: O‘quv qo‘llanma, Toshkent, 2014y.

2.”Kombinirlangan multimodal anesteziyani abdominal kasallarda qo‘llash usuli”. Agzamxodjayev T.S., Fayziyev O.Y., Yusupov A.S.: Uslubiy qo‘llanma Toshkent, 2019 y.

3.«Klinicheskaya anesteziya». Perevod s angliyskogo A.YE.Lyubovoy i prof. S.V.Sviridova. 2014 y.

4. «Kriticheskiye situatsii v anesteziologii». Moskva 2000 g. Gaba Devid M., Kevin Dj.Fish, Stiven K.Xauard.

5.Rukovodstvo po neotlojnim sostoyaniyem u detey. Moskva 2012 g. Kurek V.V., KulaginA.YE.

**4.3.3 Elektron ta’lim resurslari:**

<http://www.minzdrav.uz/>

<http://www.Neuro.uz/>

<http://www.laparoscopi.uz/>

<http://www.Qonber.uz/>

<http://www.recipe.ru/>

<http://www.ZiyonET.uz>

**5.YAKUNIY ATTESTATSIYA**

**5.1. Yakuniy attestatsiyaga qo‘yiladigan talablar**

Yakuniy attestatsiya O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyruq 3-ilovasidagi «Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta’lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini baholash to‘g‘risidagi Nizom» asosida o‘tkaziladi.